



BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2023-yil yanvar - oktabr*




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI



Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vosi tasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichlari shular jumlasidandir.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **13 114,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 - yilning yanvar - oktabr oylariga nisbatan **105,4%** ga yetdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **978,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **113,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **12 135,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,8 %**), shu jumladan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 614,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **116,1%**) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd.so'm	2022- yil yanvar – oktabr oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	13 114,5	105,4	978,7	113,2	12 135,9	104,8
Buxoro shahri	4 485,2	106,0	582,0	148,0	3 903,2	101,7
Kogon shahri	452,6	103,3	8,5	114,2	444,0	103,2
<i>tumanlar:</i> Olot	394,3	114,3	6,1	91,0	388,2	114,7
Buxoro	878,3	103,8	3,8	101,3	874,5	103,8
Vobkent	461,1	104,3	5,5	87,2	455,6	104,5
G'ijduvon	1 982,0	105,2	71,6	146,8	1 910,4	104,1
Kogon	428,5	105,6	123,0	56,3	305,5	163,1
Qorako'l	1 024,9	108,9	9,1	90,8	1 015,8	109,1
Qorovulbozor	201,6	104,2	1,4	101,1	200,2	104,2
Peshku	547,2	103,8	147,5	100,9	399,7	104,9
Romitan	871,7	102,4	5,5	89,6	866,2	102,5
Jondor	814,2	105,3	8,5	85,7	805,7	105,5
Shofirkon	573,1	102,2	6,3	94,7	566,8	102,3

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan viloyatning Olot tumanida (114,3 %), Qorako'l tumanida (108,9 %) va Buxoro shahrida (106,0 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-oktabr, mlrd.so'm)



So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati 2022-yil yanvar-oktabr oyida kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan **111,2%** ni yoki **11 262,5** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2023- yil yanvar –oktabr oylari)



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida o'sish sur'ati 105,4 % ni tashkil qildi.


yanvar-oktabr

2023- yil


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **12 135,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 - yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **4,8** % ga ko'paydi. . Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,5** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022 - yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **13,2** % ga o'sdi va **978,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,5** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Buxoro (**99,6 %**), Romitan (**99,4 %**) va Qorovulbozor (**99,3 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **7,5 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Kogon (**28,7 %**), Peshku (**27,0 %**) tumanlari va Buxoro (**13,0 %**) shahrida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Buxoro viloyati	6 485,0	103,7
Buxoro shahri	15 413,1	104,1
Kogon shahri	7 060,1	101,4
<i>tumanlar:</i>		
Olot	3 813,5	112,6
Buxoro	4 987,3	102,1
Vobkent	3 138,8	102,5
G'ijduvon	6 209,2	103,4
Kogon	5 143,5	103,4
Qorako'l	6 010,9	107,4
Qorovulbozor	10 232,7	101,5
Peshku	4 219,0	102,0
Romitan	5 815,1	100,6
Jondor	4 439,7	103,5
Shofirkon	3 096,1	100,9


2023 - yilning yanvar-oktabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **6 485,0** ming. so'mni (2022 - yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **103,7%**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (**15 413,1** ming. so'm), Qorovulbozor tumani (**10 232,7** ming. so'm) va Kogon shahri (**7 060,1** ming. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Buxoro viloyati bo'yicha 2023 - yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 614,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **116,1 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12- bozor va 12- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **784,6** mlrd. so'mni (**137,5 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **830,3** mlrd. so'mni tashkil etdi (**100,9 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – oktabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	1 614,9	116,1	784,6	137,5	830,3	100,9
Buxoro shahri	196,8	98,3	168,8	102,0	27,9	80,2
Kogon shahri	39,3	101,0	7,7	35,0	31,5	187,4
<i>tumanlar</i>						
Olot	149,3	156,7	16,0	84,3	133,3	174,4
Buxoro	27,0	66,6	26,4	118,6	0,6	3,5
Vobkent	138,1	104,9	78,2	88,8	59,8	136,9
G'ijduvon	409,8	125,9	287,9	159,3	122,0	84,1
Kogon	3,6	3,9 m	3,6	3,9 m.	-	-
Qorako'l	290,8	149,6	131,6	10,6 m.	159,2	87,4
Qorovulbozor	28,4	111,0	5,8	118,1	22,6	109,2
Peshku	87,1	104,5	19,3	119,5	67,8	100,7
Romitan	91,9	132,7	18,2	142,4	73,6	130,3
Jondor	89,5	126,6	8,5	181,5	81,0	122,5
Shofirkon	63,4	54,9	12,6	59,5	50,8	53,8

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **784,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**304,2** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	304,2
	Non va non mahsulotlari	116,4
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	65,5
	Tovuq go'shti	41,5
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	38,1
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	18,7
	Tuxum	20,1
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak	4,5
	Ziravorlar	10,4
	Tuzlamalar	11,1
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	6,3
	Nooziq-ovqat tovarlari	147,9

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023 - yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **830,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **727,0** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar **97,4** mlrd. so‘mni, otlar **3,5** mlrd. so‘mni, parrandalar **2,3** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	426,1
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	146,9
	1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	154,0
	Qo‘ylar	67,7
	Otlar	3,5
	Echkilar	29,7
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	1,4
	Tovuqlar	0,7
	Quyionlar	0
	Qushlar	0,2

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023 - yil 1 - noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **2 094** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – noyabr holatiga nisbatan **335** taga oshgan va o'sish sur'ati **119,0 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **5** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 089** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **4,0 %** ni tashkil etib, **518,9** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **5,8 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **89,3 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	518,9	105,8	55,4	101,3	463,5	106,4
Buxoro shahri	316,0	112,3	40,8	103,2	275,2	113,8
Kogon shahri	11,3	114,2	-	-	11,3	114,2
<i>tumanlar:</i>						
Olot	8,2	125,9	-	-	8,2	125,9
Buxoro	27,7	147,1	-	-	27,7	147,1
Vobkent	18,3	69,7	-	-	18,3	69,7
G'ijduvon	39,1	125,1	-	-	39,1	125,1
Kogon	9,1	90,9	-	-	9,1	90,9
Qorako'l	16,3	94,1	-	-	16,3	94,1
Qorovulbozor	5,3	64,8	-	-	5,3	88,2
Peshku	7,7	69,4	-	-	7,7	69,4
Romitan	44,6	88,1	14,5	112,5	30,1	79,7
Jondor	8,1	66,6	-	-	8,1	66,6
Shofirkon	7,3	105,1	-	-	7,3	105,1

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- noyabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) hajmi **3 231,2** mlrd. so'm bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan **160,2 %** ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **2 527,9** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **173,7 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **703,3** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Buxoro viloyati	3 231,2	100
Buxoro shahri	2 018,2	62,5
Kogon shahri	20,3	0,6
<i>tumanlar:</i>		
Olot	6,8	0,2
Buxoro	15,5	0,5
Vobkent	556,2	17,2
G'ijduvon	526,7	16,3
Kogon	7,9	0,2
Qorako'l	13,7	0,4
Qorovulbozor	4,9	0,2
Peshku	12,2	0,4
Romitan	12,8	0,4
Jondor	9,7	0,3
Shofirkon	26,2	0,8


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (**2 018,2** mlrd. so'm), Vobkent (**556,2** mlrd. so'm) va G'ijduvon (**526,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar – oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **11 379,4** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **6,7%** ga ko‘paydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi hajmi statistik hisoblarga qaraganda **8 100,5** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **115,0** %ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **71,2** % ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Olot (**70,7 m.**), Qorovulbozor (**3,2 m.**), Qorako'l (**2,7 m.**) tumanlarida va Buxoro shahrida (**2,7 m.**) kuzatildi.

2023- yil 1- noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 499** tani tashkil etib, 2022- yil 1- noyabr holatiga nisbatan **739** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **142,0 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **35** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 464** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	11 379	106,7	3 278,9	90,5	8 100,5	115,0
Buxoro shahri	4 433	138,9	414,6	2,4 m.	4 017,9	133,2
Kogon shahri	321	93,1	166,9	92,7	154,1	93,5
<i>tumanlar:</i>						
Olot	213	4,2 m.	0,5	70,7 m.	212,2	4,2 m.
Buxoro	291	90,4	0,0		291,4	90,4
Vobkent	1 079	73,0	1 027,0	71,5	52,2	126,7
G'ijduvon	822	69,1	298,4	70,0	523,9	68,5
Kogon	547	82,0	313,2	100,5	233,6	65,7
Qorako'l	264	156,9	122,2	2,7 m.	141,4	114,6
Qorovulbozor	422	84,3	0,4	3,2 m.	421,4	84,3
Peshku	1 177	120,5	536,0	76,2	640,6	2,3 m.
Romitan	644	114,6	306,0	116,9	338,2	112,5
Jondor	693	89,2	0,0		693,0	89,2
Shofirkon	474	107,7	93,7	110,2	380,5	107,1



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 65-223-75-63**